

O'QUVCHINI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA O'RTA OSIYO MUTAFAKKIRLARNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Sh.Zarmasov, JDPI o'qituvchisi
Pirimqulova N, Pedagogika va psixologiya yo'nalishishi talabasi

Umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichidan boshlab mehnat qilishga tayyorlash haqida ta'lim va tarbiya beriladi. Ushbu ta'lim-tarbiya berishda ularning yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olishi lozim. Mazkur nuqtai nazardan O'rta Osiyoda yashab ijod etgan ulug' mutafakkir shoir, olimlarning pand-nasihatlarida barkamol avlodni kasbga tayyorlashning diqqatga sazovor omillari bayon etilgan.

Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sino barkamol avlodni muayyan hunarga jalb etishga e'tibor berish kerakligi ularning hunar egallab, o'z hayotlarini ta'minlashlari uchun g'amxo'rlik qilish zarurligini uqtirgan edi. Mutafakkirning uqtirishicha tarbiyachi bolani hunarga o'rgatishda uning qobiliyati, iste'dodi, imkoniyatlarini e'tiborga olish kerak, barchani birdaniga bir hunarga o'rgatib bo'lmaydi.

Demak, o'qituvchi bolalarga ta'lim berishdan avval, o'quvchining xulq-atvorini o'rganishi kerak. Avvalo, u o'quvchining qanday kasbga qiziqishini aniqlaydi, unga kasb-hunarning muayyan turini tavsiya etadi.

Alisher Navoiy yosh avlodga beriladigan bilim va hunarni bir-biri bilan uyg'unlashtirib borishini, unga yaxshi tarbiya va odob o'rgatish lozimligini uqtiradi. U kasb-hunar ahlini ulug'lab, inson manfaatlarini himoya qilish, hazrati odamni yuksaklikka ko'tarishda hunar ahlining xizmati katta ekanligini ta'kidlaydi. Alisher Navoiy kosiblar to'g'risida bunday deydi:

Kosib, ganji kofi zar olg'inj erur,

Ikki qo'li mezonni diram sanji erur. (Alisher Navoiy. Nazmul javohir. 9361-sonli qo'lyozma, 8^b-bet.)

Mazmuni: "Kosiblarning oltin oluvchi xazinasi ularning qo'lidadir. Tanga o'lchov tarozisi esa yana shu qo'llaridir".

Alisher Navoiy mehnatni baxtli hayot manbai deb biladi. Jamiyatning boyligi ham mehnatda ekanligini ta'kidlaydi. U inson hayotida kasb-hunar muhim ahamiyat kasb etishini aytib, mehnat kishini kamolotga yetkazadi deb hisoblaydi.

Biroq olib Yusuf Xos Hojib ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqlikda olib borishni tavsiya etadi. U o'g'il bolalar bir necha sa'at turlari va kasb-hunarni o'rganishi lozimligini ta'kidlaydi, bu ularning kelajak hayotlarini ta'minlash, jamiyat rivoji uchun zarurligini aytib o'tadi.

XV asrda yashab ijod etgan Jaloliddin Muhammad as-Siddiqiy ad-Davoniy pedagogik qarashlarida kasb-hunar egallashni insonning eng yaxshi fazilati deb bilib, uni boylikka hirs qo'yish va ta'magirlikka qarama-qarshi qo'yadi.

Davoniy barkamol avlodni biror kasb-hunar bilan shug'ullanishi kerakligini ta'kidlab, muallif bola qaysi kasbga qiziqsa, shu kasbni egallashga yordam berish, uni har tomonlama qo'llab-quvatlash lozim deydi.

Davoniy kasb-hunarga qarab odamlarni toifalarga bo'ladi. Uningcha, kasb-hunar egalari to'rt toifaga bo'linadilar: Birinchisiga qalam ahllari: qozilar, muhaddislar, olimlar, noib va munajjimlar kiradi. Harbiylar ikkinchi toifaga, savdogar va hunarmandlar uchinchi toifaga, qishloq xo'jaligida mehnat qiluvchilar, dehqonlar to'rtinchi toifaga kiradi.

Bunday kasblar qadimdan qadrlanib kelingan. Shulardan eng faxrli kasblardan biri bog'bonlikdir.

O'tmishda aqliy tarbiyada qo'llangan tadbirlarga nazar tashlasak, donishmand xalq dehqonchilik, bog'bonlik sirlari haqida bolalarda tasavvur hosil qilish maqsadida o'zlari ijod etgan hikoyalardan mohirona foydalanganlarini ko'ramiz. Chunonchi, ularaytgan "Bog'bon bilan tok" hikoyasida shunday voqea hikoya qilinadi:

Bir kuni tok bog'bonga zorlanib dedi:

- Bog'bon bobo, mana bu yerga meni siz o'tqazdingiz, yetishtirdingiz, meni yetishtirguncha ancha peshona teri to'kdingiz. Shubha qilmayman, meni sevasiz, lekin nega buncha xafa qilib, anchagina novdalarimni kesib tashlaysiz?

Bog'bon shunday javob berdi:

- To'g'ri aytasan, Tokim, men sening joningni og'ritib bir oz xafa qilaman, lekin sening foydang uchun shunday qilishga majburman. Bu ishimi "xomtok qilish" deydi. Agar sening foydasiz novdalarini kesib tashlamasam, bu ortiqcha novdalar, barglar seni bo'g'ib qo'yadi, u vaqtda go'zal va shirin uzumlar bera olmaysan. Sening badaningni og'ritaman-u, lekin seni go'zallashtirib, badaningga kuch-quvvat beraman. (O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. – Toshkent. O'zbekiston Respublikasi FA "Fan" nashriyoti, Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti, 1995 y. 25-bet.)

Hozirgi kunda ham mevali daraxtlarni parvarish qilishda bu qoidaga amal qilinishi hammaga ma'lum. Xalq har bir hunarni egallash uchun vaqtni g'animat bilishni bolalarga tushuntirgan. Bu ishni xalq "Barvaqt qilingan harakat-hosilga berar barakat", "Vaqtning ketdi-naqding ketdi", "Vaqt g'animat, o'tsa-nadomat", - maqollarida o'z ifodasini topgan.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o'quvchini kasb-hunarga yo'naltirishda O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik qarashlaridan foydalanish orqali kasb-hunarga qiziqtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1998.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. «Muloqat» jurnali, 1998 yil, 5-son.
3. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T.: «O'qituvchi», 1996, 146 bet
4. Hasanova O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T.: «O'qituvchi», 1993, 204 bet.
5. Komiljon Xoshimov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. T.; «O'qituvchi», 1995 yil.
6. Maxamatova, F. (2020). Таълим-тарбия самарадорлигини оширишда ота-она ибрат намунаси. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Maxamatova, F. (2020). Педагогика фанини ўқитиш жараёнида муоммоли ўқитиш технологияларидан фойдаланиш. Архив Научных Публикаций JSPI.

- 8.Махаматова, Ф. (2020). Оилада фарзанд маънавий тарбиясига руҳий таъсирлар. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 9.Махаматова, Ф. (2020). Sog'lom oilaviy muhitni himoya qilishning qonuniy asoslari. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 10.Махаматова, Ф. (2020). "Современные тенденции" учитель-ученик" в системе непрерывного образования: проблемы и решения. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 11.Махаматова, Ф. (2020). Развитие страхования в инновационной сфере. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 12.Safaraliyevna, M. F. (2021). Pedagogical bases of formation of readiness of students to work. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 528-531.
- 13.Safaraliyevna, M. F. (2021, January). PEDAGOGICAL BASES OF INVOLVEMENT OF STUDENTS IN LABOR EDUCATION. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 290-296).
- 14.Safaraliyevna, M. F. (2021, January). PEDAGOGICAL BASES OF INVOLVEMENT OF STUDENTS IN LABOR EDUCATION. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 290-296).